ER-XX / ERV-XX — VAQT RELESI

Foydalanish bo‘yicha yo‘riqnoma | ESS Electrical Solutions

Vazifasi

ER-XX va ERV-XX vaqt relelari elektr qurilmalarini oldindan belgilangan vaqt kechikishi bilan boshqarish uchun mo‘ljallangan. Sanoat, turar joy va boshqa obyektlarda vaqt bo‘yicha boshqaruv zarur bo‘lgan tizimlarda ishlatiladi.

Ishlash prinsipi

Qurilmani ishlab chiqaruvchi sxemasiga muvofiq ulang. Qurilmaga quvvat berilgach, o‘rnatilgan vaqt bo‘yicha hisob boshlanadi. Hisoblash davomida chiqish indikatori yonib-o‘chadi. Belgilangan vaqt tugagach, chiqish relesi o‘z holatini o‘zgartiradi va indikator doimiy yonadi. Elektr ta’minoti uzilmaguncha rele shu holatda qoladi. Vaqtni qurilmaning sozlash elementi bilan belgilang.

Texnik xususiyatlari

Ta’minot kuchlanishi	150–260 V AC
Tarmoq chastotasi	50/60 Hz
Quvvat sarfi	< 4 VA
Vaqt oralig‘i	0,1 s – 60 min
Ish harorati	−20…+55 °C
Indikatorlar	1 ta LED va chiqish relesi LED indikatori
Kontaktning nominal qiymati	5 A / 250 V AC (rezistiv yuklama)
O‘rnatish	Panelga yoki DIN-reykaga
Maksimal balandlik	2000 m
Kabel kesimi	2,5 mm² gacha
Og‘irligi	90 g gacha


Xavfsizlik va texnik xizmat

Montaj va ulash ishlarini faqat malakali elektrik quvvat uzilgan holatda bajarsin. Qurilmani nam joyda ishlatmang. Tozalashdan oldin quvvatni uzing va quruq matodan foydalaning; erituvchi yoki kimyoviy vositalardan foydalanmang. Qurilmadan oldin tegishli avtomatik o‘chirgich va ajratgich ko‘zda tutilsin. Simlarni ulashda korpusdagi aniq klemma belgilari va ishlab chiqaruvchi sxemasi ustuvor.


ER-XX / ERV-XX — VAQT RELESI

Ulash sxemalari

ER-XX va ERV-XX uchun asl ulash sxemalari:



O‘lchamlar



Eslatma: sxemalar va o‘lcham chizmalari asl hujjatdan olingan; ulardagi inglizcha texnik yozuvlar saqlangan. ER-XX va ERV-XX korpuslari o‘lchami hamda ulanishi farq qiladi.